

1

- Nima dedingiz? - Hozirgina hisob chiptasini qo'lga olgan odam turgan yerida qotib qoldi.

- Shunday, inim, - dedi keskin ohangda shifokor, - yana 200 ming yuvan topshirmasangiz, onangizning hayotini saqlab qololmaymiz, tushunarli bo'lsa kerak?!

Bu gapni eshitgan Abayning boshi hushidan uchib, quyi tushib ketdi. U azaldan yer sharining aylanishiga ishonmasdi. Lekin endi, shu topda yer sharining haqiqatan ham aylanayotganini his qilardi. Shifokorlarning xonasi bilan onasining yotoqxonasi bir devor edi. U yotoqxonaga chiqqunga qadar oraliqda yer sharining o'z o'qi atrofida sakkiz marta aylanganini aniq sanayoldi. U hozirgina yiqilib ketgudek, devorga suyanib, onasining yoniga zo'rg'a kirib keldi.

- Nima bo'ldi senga, bolam, juda tashvishli ko'rinasan? - dedi Robixon qovjiragan lablarini bazo'r qimirlatib.

- Hech narsa bo'lgani yo'q, oyijon, sizga shunday tuyulgandir, - Abay boshini bir yoniga olib qochuvdi, bir necha tomchi yosh yonog'idan sirg'alib tushdi. Bu hol Robixonning nursiz nigohidan qochib qutulolmadi. U Abayni вЂњpuldan siqilib qolganga o'xshaydib Ъќ deb, hol so'ramoqchi bo'luvdi, biroq yana o'g'lining ko'nglini ayab:

- Kasalxonadan chiqib keta qolaylik, bolam, - dedi.

- Tuzalmasdan turib-a? Oyijon, men bunday qilishga o'lsam ham yo'l qo'ymayman, - dedi yoshli ko'zini onasidan yashirib, hamon bir tomonga qaragan holda.

- Hozir ancha yaxshi bo'lib qoldim, bolajonim, - Robixon o'zini tetik ko'rsatishga urinib, o'tirmoqchi bo'luvdi, boshi aylanib, yana noiloj karavotga cho'zildi. Onasining egnidagi novvotrang ko'ylakdek qovjiroq vujudini ko'rib, Abayning qattiq kayfi uchib ketgandi.

- Nima bo'ldi sizga, onajon? - Abay onasini quchoqlab, asta yuzini silay boshladi.

- Hech narsa bo'lgani yo'q, bolajonim, - Robixon eti qochgan titroq kaftini Abayning yuz-ko'zlaridan yurgizdi. - Aytmasang ham hammasini bilib turibman, bolam, sotgudek hech vaqomiz, qarz so'ragudek kishimiz bo'lmagach, 200 ming yuvanga qayga boramiz?..

- Puldan g'am yemang, oyijon, - Abay og'zida shunday degani bilan pulni qanday topishni bilmasdi. Ayni shu kunlarda Abayning qarindosh-urug'lari, yor-do'stlari orasida ming yuvanga ham qudrati yetadiganining o'zi yo'q edi. 200 ming yuvanni gapirma ham bo'ladi. Abayning ko'z yoshi onasining kaftini jiqqa ho'l qilib yubordi.

- Men sendan roziman, bolajonim, roziman, - mushtipar ona shunday der ekan, Abayning endilikda go'yo baland tog'dan oshib tushayotgan shalola singari durillab to'kilayotgan ko'z yoshini kaftida artib, uning qizargan ko'ziga umid bilan tikildi. - Ukang ikkovingga turmush kerak, shifoxonaga sarflaydigan pulga ikkovingni uylantirib qo'yay, xudo shungacha hayot chirog'imni o'chirib qo'ymasin-da. Lekin... pulni qayerdan topamiz?

Abay o'zining chorasiz o'g'il bo'lib qolganligidan qattiq o'kinardi. U boshqa tijoratchi savdogar yigitlardek ishga uquvi bo'lganda, yerini sotgandagi 400 ming yuvanni bunchalik tez yo'qotmagan bo'lardi. Qaytanga uni aylantirib, bir necha million qilgan bo'lardi. Mana, bugungi kunga kelib pul o'zining qudratini ko'rsatmoqda. 200 ming yuvan bo'lsagina Urumchidagi tajribali professorlar kelib onasining yuragini operatsiya qilishardi. Abay onasiga gapirmoqchi bo'lib tamshangandi, tomog'iga bir narsa tiqilib, ovozi chiqmadi. Harchand uringanidan terlab ketdi. Oxiri biroz o'ziga kelgandek bo'ldi.

- Oyijon, - dedi u birov eshitib qolishidan qo'rqqanday muloyim ovozda, - eng avval sog'lig'ingizni tiklaylik, qolgani bir gap bo'lar.

- Buncha pulni qayerdan topamiz, bolam?

- Maxsum amakimning oldilariga borib ko'rsammi deyman, - Abay onasining qo'lidan bo'shanib, ko'ziga umidvor tikildi. - Sizningcha, qanday bo'larkin?

- Men ham xuddi shuni o'ylab turuvdim, bolam. Lekin... - Robixon to'xtab qoldi.

- Qarzni qanday uzamiz deyapsiz, shekilli?

- Ha, bo'lmasa-chi, axir вЂњolmoqning bermog'i, yemoqning qusmog'ib Ъќ degan gap ham bor-da, bolam.

- Bizga faqat sizning sog'lig'ingiz kerak, oyijonim. Siz tuzalib oyoqqa turing, menga shundan ortiq hech narsa kerak emas, - Abay o'rnidan turdi, - ukam ikkovimiz ishlab uzamiz qarzni, - shunday deb eshik tomonga yurdi.

- Qayerga ketayapsan, bolam? - Robixon yana nimadir demoqchi bo'lgandek qo'lini zo'rg'a ko'tarib madorsiz qimirlatdi. Eshik oldiga borgan Abay endi ortiga qaramoqchi bo'lganda, to'satdan eshik ochilib, bashang kiyingan Maxsum kirib keldi.

- Assalomu alaykum, - kutilmagan uchrashuvdan ikki-uch soniya taraddudlanib, Abay Maxsumga salom berdi.

- Vaalaykum assalom, o'g'lim, - Maxsum qo'lidagi narsalarni Abayga tutqazdi. So'ngra Robixonning yoniga kelib, o'rindiqqa cho'kdi.

- Abdulaziz birodarim haqida eshitib chuqur qayg'uga botdim. Alloh joyini jannatda qilg'ay, - u ko'ziga kelgan yoshni dastro'moli bilan artib, maqsadga ko'chdi. - Birodarimni so'nggi bor kasalxonadaligi vaqtida yo'qlab, shu kuniyoq chet elga chiqib ketuvdim, mana, bugun kelishim, kiyimlarimni almashtirib uyinglarga borsam, ahvolni qo'shninglardan eshitdim. Nimayam qilardik, Robixon. Ikki bolaning baxtiga, ishqilib, yaxshi bo'lib keting-da.

- Rahmat! - Robixon unsiz yig'ladi.

- Ko'nglingizni buzmag, - Maxsum kastyumining tugmasini yechib yuborib, bo'yinbog'ini biroz bo'shatib qo'ydi, - odam degan umid bilan yashashi kerak, shunday emasmi, Robixon?!

Abay maqsadini bildirish uchun shoshilib so'z qotdi:

- Siz pulning g'amini qilmay, xotirjam davolaning, oyijon.

- Nima gap? Men tushunolmadim, - dedi Maxsum hayronligini yashirolmay, - pulinglar tugadimi?

- Shunday, dadamlarning o'zlarigagina 350 ming yuvan ketdi, - Abay so'z orasida biroz tin oldi, - endi oyijonimga 200 ming yuvan ketarkan, shu pulni...

- Shu ham gap bo'ptimi? - Maxsum ko'zini Abaydan Robixonga qaratdi, - mening pulim sizlarning pulinglar degan gap-ku, sizlarga ishlatmagan pulni men nima qilaman-a? Abay-ku, hali g'o'r, aqli yetmaydi, siz nega bunday qilasiz, Robixon?

- Sizni yana ovora qilgimiz kelmadi-da, Maxsumjon.

- Ovora-povorasi yo'q. Vaqtida sizlarning menga ko'rsatgan yaxshiligingiz uchun men bir umr qarzdorman, Robixon, - Maxsum so'zining oxiriga urg'u berib aytdi, ortidan Abayga qarab davom qildi, - bu, bundan yigirma besh yil ilgarigi ish edi, o'g'lim, men вЂњNoma'lum bozorchi вЂќ degan tamg'a bilan sizlarning qishloqqa surgun qilingandim. Bir kuni bir to'da odamlar hech narsadan-hech narsa yo'q, meni tutib olib urib, chalajon holatda daryo bo'yiga tashlab ketishgandi. O'sha vaqtlarda ajalim yetmagan ekan, qamish o'rayotgan dadang meni ko'rib qolib, uyida rosa ikki oy asrab yotdi. O'shanda mana shu boyaqish onang

sizlarning rizqingizni menga berib yaxshi boqqan edilar. Keyin meni kaltaklagan ablahlar gumonsirab dadangni qattiq qiynashdi, dadang hech narsa demadi. Uning buyragi bilan jigari ana shu chog'da meni saqlab qolish evaziga og'ir zaxmlangan ekan. Qani, o'zing aytgin-chi, bolam, dadang bilan onang shu vaqtlarda meni qutqarib qolmaganlarida, hozirgidek katta bir guruhning yetakchisi bo'lolarmidim? - Maxsum jildirab oqayotgan ko'z yoshlarini artib so'zini davom ettirdi, - men dadangdan, butun oilanglardan bir umr qazdorman. Qancha pul ketsa ketsin, ammo men onangning kasali butkul sog'aymaguncha har qanday chiqimdan qochmayman. Sizlarni hech narsaga zoriqtirmayman.

- Ko'p rahmat, Maxsum amaki, - Abay egilib ta'zim qildi, - Unday bo'lsa davolinishga ketadigan pullar qarz hisobida bo'lsin.

- Bu nima deganing bolam?

- Dadam rahmatlik doim v**Ў**hirovning haqqi og'udirv**Ў**k derdilar, - Abay tushintirdi, - ajir qilmay pulingizni xarajatlasak, otamizning arvohi bundan ranjyidur. Busiz ham dadamning yerni sotmaymiz deganlariga quloq solmay, sotib mana shu holga tushib qoldik.

- O'sha vaqtda men ham aralashmagan ekanman, - Maxsum qo'shib qo'ydi, - biroq onang ikkovinglar qattiq turib oldinglar...

- U yer uchun faqat men o'zim aybdorman, - dedi Abay.

2

Maxsumning homiyliги bilan Robixonning yuragi operatsiya qilinib, bir oyga yetmay shifoxonadan ham chiqdi. Bunga 240 ming yuvandan ortiq pul ketdi. Maxsum mashinasi bilan Robixonni tuman bozoridagi uyiga yetkazib qo'ydi. Abay bir oy davomida shirkatning ishlari bilan tanishib chiqdi. U onasi bilan uyda bir kun birga bo'lib, ertasigayoq shaharga qaytib keldi. Maxsum Abayga shirkat joylashgan binoning 2-qavatidan ikki xonali ishxona ajratib berdi. Abay bu xonalarning ichkarisidagini yotoq, tashqarisini esa bo'lim qilib olgandi. Uning zimmasiga yuklangan doimiy vazifasi bo'lmasa-da, bo'limda shirkatga daxldor hujjatlarni yoki gazeta-jurnallarni ko'rib o'tirardi, oralab aloqador o'rinlarga turli yo'llanmalarni yetkazib berardi. Yemak-ichmak ham shirkat mehmonxonasining oshxonasida edi. Oshxona xo'jayini Maxsumning joylashtirishi bo'yicha Abaydan bir tiyin ham haq olmasdi. Ko'p o'tmay Abay ko'zga ko'rinib qoldi, u yig'irlarga chaqiriladigan bo'ldi, unga o'zlarini yaqin tutadiganlar ko'paya boshladi. Boshida shirkatdan nariga bormaydigan Abay mana endi chinakam yap-yangi yengil mashina haydaydigan yigitlar, sho'x-shodon qizlar bilan qayerlarga boradigan bo'lmadi deysiz. Qator ziyofatlar oxirlashib, navbat Abayga keldi. Uning boshqalar kabi uch yoki to'rt yulduzli mehmonxonalarining restoraniga mehmon chaqirishga qurbi yetadigan bo'lib qoldi. Maxsum uning qo'liga yuz yuvandan ortiq pul tutqazmagandi. Pul so'rashga esa og'zi bormasdi. Aytmasa ham uning hech narsasi kam emas edi. Hatto kamyob atir sovunlargacha hammasini shirkatning chiptasi bilan ololardi. Abay o'n tiyin topmay hanuzgacha Maxsumning pulini sarflardi. Uning bu ishlardan yuzi ko'yib bir marta: v**Ў**Maxsum amaki, meni pul topadigan ishlarga qo'ysangiz yaxshi bo'lardi, chunki bekor yeb yotishga nomus qilayapmanv**Ў**k, deganda, Maxsum: v**Ў**hozir vaqti emas, harholda yomon ishlardan o'zingni tortib turv**Ў**k, deb javob bergan edi. Abay yomon ishni badxarjlik deb bilardi. Shu bois chiptani bo'lar-bo'lmasga ishlatmasdi. Do'stlari bilan bo'lgan gapni esa shirkatning kelgusidagi ishlari uchun poydevor deb tushunardi. Nima bo'lsa-da, gap berish navbati Abayga kelgandi. U boshida bu xususda Maxsumning fikrini olishni o'ylagandi. Aksiga olgandek, Maxsum shirkat xizmati bilan v**Ў**ichkarigav**Ў**k (Xitoyga) ketgandi. Nima qilish kerak? Kelishini kutsinmi? Vaqt ziq, kechiktirib bo'lmaydi. Nihoyat, Abay do'stlarini shirkat mehmonxonasining oshxonasida kutishga qaror qildi. Garchi bu oshxona yulduzli restoranga o'xshamasa-da, ammo uning bezak va jihozlari o'sha restoranlardan aslo qolishmasdi. Abayning do'stlari mamnun bo'lib qaytishdi. Shu kuni uning chiptasiga 3200 yuvan chiqim qayd etib qo'yildi. Oradan uch kun o'tgandan keyin Maxsum shirkatda paydo bo'ldi. Abay uni yo'qlab qabulxonaga kirdi.

- Assalomu alaykum, amaki, yaxshi borib keldingizmi? Hol-ahvol so'ray deb huzuringizga keluvdim.

- Vaalaykum assalom. Juda yaxshi qilibsan, kel jigaram.

Orasta bezatilgan ulkan qabulxona. Abay bu yerga xizmatga kelgandan buyon bir marta ham kirib ko'rmagandi. Maxsum qo'l olishib ko'rishdi:

- Qani, o'tir. - Abay u ko'rsatgan kresloga cho'karkan, xonaga iymajibgina ko'z yugurtira boshladi, Maxsum ham uning ro'parasida o'tirib so'zida davom etdi:

- Ha, onangning sog'lig'i qanday?

- Juda yaxshilar, - Abay javob berayotib allaqanday bir ishni xato qilgandek birdan to'xtab qoldi, so'ng sarosimali ohangda davom qildi. - Ha, aytmoqchi, o'zingiz qanday, olis yerlarda qiynalmadingizmi? Azbaroyi hovliqqanimdan siz bilan durustroq ham so'rasholmadim. Afv etasiz...

- Hechqisi yo'q, o'g'lim... - Maxsum gapga og'iz ochganida kimdir eshikni taqillatmay, betakalluf qabulxonaga kirib keldi, bundan boshliqning g'azabi qaynab, notanish odamga o'shqirib berdi: - Eshikni taqillatmay kirasan, bu yer senga karvon bozormi?!

- UZR, xo'jayin, xafa bo'lmang, m-men ... shahar hokimiyatining...

- Qayerning odami bo'lishing bilan ishim yo'q, - boshliq yanada o'shqirdi. - Oldimda odam borligini bilmadingmi? Qani, hoziroq ko'zimdand yo'qol!

v**Ў**Alloh! - Abayning ko'z oldida ro'y bergan bo'lib qoldiv**Ў**k. Men uni qo'yday yuvvosh odam desam, o'ziga yetganicha jahl ekan-a...v**Ў**k - dedim ichimda.

- Xo'sh, bolam, - dedi boshliq notanish odam chiqib ketgandan keyin Abayga kulib qarab, - onangni yo'qlab turdingmi?..

- Siz ketgandan buyon borolmadim.

- Mana shu ishni chakki qilibsan, - dedi boshliq o'kinganday boshini chayqab, - onang hali butkul tuzalib ketganicha yo'q. Sen tashqariga chiqqanda mushtipar-mushfiq onangni unutib davru davrondasan, onang esa hatto o'zining bemor ekanligini ham unutib senlarning g'aminglarni qiladi, diydorlaringni ko'rgisi, onalik bag'riga bosgisi keladi. Onalarning qaynoq mehri, muhabbati shunchalar kuchliki, buni hech qanday so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi! Qisqasi, agar meni otangday ko'rib, aytganlarimni quloqqa oladigan bo'lsang, zinhor-bazinhor unday qilma. Onang duosini olishga intil, uni tez-tez yo'qlab tur. Senga bu gaplarni men aytmasam, kim aytadi, bolam?!.

- Bo'ldi, amakijon, endi boshqa bunday bo'lmaydi.

- Yaqindan buyon nima ishlarni qilayapsan?

- Bekorchilik, tayyorga bakovul deganday gap...

- Ana ko'rdingmi, vaholonki, qilaman desang ish g'ij-g'ij. Xitoy tili bilan inglizchani o'rganayapsanmi?

- O'rganayapman, - Abay nechundir borgan sayin bezovtalanib, yengil titrashga boshladi. U Maxsumning oldida ilk marta o'zining

2 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

qo'rqayotganligini his qilardi.

- Yaxshi, - Maxsum sigaretadan birini olib, tutashtirib cheka boshladi, - hozir ham o'sha do'stlaring bilan bordi-keldi qilayapsanmi?

- Shunday...

- Yaxshi! Hozir do'stlaring qanchaga yetdi?

- Ha... na... shu... eskilari...

- Gapinglar davom etayaptimi?

- Shu... shunday, - Abay qo'rqanidan boshini ko'tarolmay qoldi, - siz.... kelmay... shu... ning bilan....

- Juda soz, - Maxsum uning gapini bo'ldi. - Bas, aytmay qo'ya qol. Hammasini eshitdim. Xo'sh, endigi gapni qaysi restoranda o'tkazmoqchi bo'ldinglar?

Abay qo'rqanidan tobora bujmayib borardi. U barmoqlarini chalishtirib o'tirgan holda yer ostidan Maxsumga razm soldi.

Maxsumning avzoyida esa hech qanday o'zgarish yo'q edi. U yana, o'sha-o'sha avvalgiday ro'yxush Maxsum edi. Biroq nechundir Abay go'yo azroilning oldida turgandek titray boshladi.

- ВЪНЪ Mars ВЪК restoranida, - Abay shu so'zni zo'rg'a aytoldi.

- Ho! Ho! Ho! - Maxsum kinoyali kuldi, - yaxshi, yer sharidan Marsga ko'chgan bo'lsanglar, erta-indin bir-yo'la quyoshga chiqib o'ynaydiganga o'xshaysizlar, shekilli? - U tamakisini qattiq tortdi.

- Quloq sol, men senga aytay, bolam, seni shirkatga tomosha qildirgani emas, ko'rpaga qarab oyoq uzatarmikin, mehnat qilib onasini boqarmikin, deb olib kelganman, agar mana shunday yuraversang, biryo'la gul emas, kul bo'lasan, tushundingmi, ВЪНЪ o'tirgan bo'ura, yurgan daryov ВЪК degandek, senga yana takror aytaman - kul bo'lasan. ВЪНЪ Qimirlagan qir oshar ВЪК, deb bejiz aytilmagan, bu gapping ham mag'zini chaqmoq kerak. - U o'rnidan turib telefon go'shagini qo'lga oldi. - Onangga telefonni men qilamanmi yoki o'zingmi?

Abay uyida telefon borligini xuddi hozirgina eshitayotgandek bo'zrayib turib qoldi. Robixon kasalxonadan chiqqandan keyin, bog'lanib turishga qulay bo'lsin uchun, Maxsum ularning uyiga telefon o'rnatib bergandi. Boshida Abay bir kunda necha marta onasi bilan qo'ng'iroqlashib turdi, keyinroq bir necha kunda, o'shanda ham esiga kelganda bir martaga tushib qoldi. Yaqin o'rtalardan buyon esa, aqalli haftada bir marta ham qo'ng'iroq qilmaydigan bo'ldi. Buni nima desa bo'ladi?! Abay endigina o'zining borgan sari o'tirgan yeriga botib ketayotganligini, his qila boshlagandi.

- Bo'ldi, Maxsum amaki, - dedi Abay o'rnidan turib, Maxsumning oldiga keldi, - onamga qo'ng'iroqni men qilaman, rost, xatoga yo'l qo'ydim, oldingizda uyat va qattiq xijolatdan boshimni ko'tarolmay qoldim. Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi, sizga va'da berib aytaman, men endi hargiz bunday qilmayman.

- Endi bo'lmaydi! Senga ishonib men xato qilgan ekanman, odam bo'lar, aqlini yig'ib olar, deb o'ylabman!.. - Maxsumning ovozi keskin chiqdi, - men seni bundan ilgari ham ikki marta ogohlantirgandim, biroq o'zgarmading. Qaytanga borgan sari tubanlashib ketayapsan. Hatto senga ishongan kishini ham o'zing bilan tublikka tortib ketmoqchi bo'layapsan! Senki shunday bo'lgach, ortingdagi ukangning ahvoli qanday kechadi? Uni ham sendan ibrat olmaydi, deb kim kafolat bera oladi, kim?..

- Bu safargisi so'nggisi bo'lsin, Maxsum amakijon, - dedi Abay va o'zini tutolmasdan yig'lab yubordi. - Ishonmasangiz ont ichaman, chizgan chizig'ingizdan chiqmayman, aytgan so'zlaringizni bekami-ko'st bajaraman.

- Bo'ldi, qasam ichma, bolam.

Maxsum telefon go'shagini qo'ygandan keyin, bir muddat o'yga toldi, so'ng sirli ohangda dedi:

- Mayli, bu gal ham eng oxirgi marta bir fursat beray, maboda tarki odat - amri mahol deganday, va'dangga amal qilmasang, men haydamasimdan o'zing ketganing ma'qul. Onangga xarjlagan pullar mening sizlarga qilgan yordamim bo'lib qolsin, ma'qulmi? - dedi Maxsum keskin qilib.

- Sizni hargiz umidsizlantirmayman deb va'da beraman, Maxsum amaki.

- Juda yaxshi, - der ekan, Maxsum Abayning qo'lga ikki ming yuvanni tutqazib maqsadga ko'chdi.

- Hozirning o'zida uyingga borib, ertaga qaytib kelgin. Bu pulni hozircha xarajat uchun ber. Indinga samolyot bilan Guonjuga uchasan, u yerga borganidan keyin, oldingga bir odam chiqadi. O'toq, yemak-ichmaklaringni o'sha odam o'zi o'rinashtiradi. Uning chizgan chizig'idan chiqmaysan, o'tir desa o'tirasan, tur desa turasan. - Shunday deya, Maxsum biroz jim qoldi. So'ng yana asta, vazmin holda so'zida davom etdi. - Yana qaydam, bu yerdagidek u yerda ham betayin yurib, o'zingga ham, onangga ham, qolaversa, shirkatga ham ish ortirmasmikinsan deyman?

- Sizni tushunib turibman, ВЪНЪ og'zi kuygan odam qatiqni puflab ichar ВЪК, demoqchisiz-da. Bunday bo'lmaydi, amakijon.

Aytayapman-ku, xo'p desangiz, qasam ichay.

- Hojati yo'q, mayli, o'sha kun kelaversin-chi, u yog'i bir gap bo'lar.

3

Abayning Guongjuda turganiga ham bir haftadan oshdi. Uning tushgan yeri obod bir joydagi besh yulduzli mehmonxona edi.

Qiladigan ishi qurilish uskunalari zavodiga borib, kunda ikki marta buyurtmalarni surishtirib turish edi, qolgan vaqtlarda yotoqxonada televizor ko'rib o'tirardi. Ora-sira, boshqalarning hamrohligida manzarali joylarni sayr qilardi. Ko'ngilli dam olish ishlarini Jasur ismli bir yigit bajarardi. Bir marta Abay uyda yotaverib zerikib ketganidan ko'chaga chiqib, aylanmoqchi bo'ldi.

Ammo bu ish ham amalga oshmadi, chunki u ko'chaga chiqishi bilanoq Abay ilgari mutloq ko'rmagan notanish kimsa uni yana zum o'tmay yotoqxonaga kiritib qo'ydi. Abay yotoqqa kirishi bilan boshliq Maxsumdan qo'ng'iroq bo'lib, uni obdon terga botirdi. Ana shundan boshlab Abay Jasurning izidan chiqmasdi. U endi har doim zavoddagi buyurtma ishlarining borishidan xabar olgach, o'zga hech narsaga qaramay, to'g'ri yotog'iga qaytib, divanga cho'zilardi. Abay shunday kunlarning birida tush ko'rdi. Tushida oq bulutga minib, oq paxta terib yurganmish. Oydin kecha osmonida esa yulduzlar jimir-jimir qilishar, kurrai zaminga g'amzali nigoh tashlardi. Zamin ham oq paxtalarga burkangan emish. Hamma yerga oq ko'mirlar yog'ilganmish. Abay uyg'onib ko'rgan g'alati tushidan hayratlandi, uning ta'birini yecholmay, o'rnidan turib uyiga qo'ng'iroq qildi. Go'shakni Robixon oldi. Abay onasining ovozi eshitib, xursandligidan yuragi odatdagidan qattiqroq ura boshladi. Onasining sog'-salomatligini eshitgandan keyin, hozirgina ko'rgan tushini aytib, ta'birini so'radi:

- Oyijon, ko'rgan tushim yaxshilikdan bashoratmi yoki, a... nima? - Abay go'shakni chap qo'lga oldi, - oqlik - u porloq istiqbolning bashoratimi? O'h-hu-o', zo'r tush ekanu?.. Xayr oyijon, o'zingizga yaxshi qarang, xotirjam bo'ling, yaxshi ishlab, Maxsum amakimdan olgan qarzlarni to'liq uzaman, ko'rishguncha sog'-salomat bo'ling. - Abay shodligidan o'zini qayerga

qo'yishini bilmasdi. Shu payt telefon jiringladi, Abay yana go'shakni oldi.

- Ha, menman, hozirning o'zidayoq borishim kerakmi? Ma'qul. - Abay go'shakni qo'yib, tashqariga chiqdi. Taksiga o'tirib, belgilangan joyda tushib qoldi. Oradan ko'p o'tmay qirq yoshlar chamasidagi bir odam kelib u bilan ko'rishdi. Sumkasidan bir dona samolyot chiptasini olib, Abayga berdi.

- Yana uch soatu qir besh daqiqadan keyin uchadi, - dedi u vaqtni eslatib. - Jasur boya siz bilan qo'ng'iroqlashgandan keyin muhim bir ish bilan Jiyong-nanga ketdi. Sizni kuzatib qo'yishni menga topshirdi. - U soatiga qarab maqsadga ko'chdi. - Zavoddagi buyurtma, ya'ni qurilish ashyolari bugun poyezdda yo'lga chiqadi. Sizning bu safargi vazifangiz tugadi. Samolyot uchishiga hali ancha bor. Yuring, do'konlarni aylanib, uyga u-bu sovg'a olvoling.

- Iloji yo'q. Ortiqcha pul olmaganim hozir pand berayapti, - dedi Abay erkin holda go'yo o'ziga-o'zi gapirayotgandek eshitar-eshitilmas ovoza.

- Siqilmang, janob, arzimagan narsaga, - dedi boyagi odam kulib, - Jasur buning ham ilojini qilib, bularni ado etishni menga topshirgan. Sovg'a-salomlarga ajratilgan pullaringizga narsalarni o'zim olib beraman, qani, ketdik!

Abay turgan yerida mixlanib qolganek qimirlayolmay qoldi. Uyga ham olis eldan вЂњЎmozor bosdiv Ўќ deganday quruq qo'l bilan qaytishga xijolat chekardi. Biroq sovg'alarni mutlaqo begona bir odam olib bermoqchi bo'layotgani unga yana-da og'ir botar, vijdoni azoblanardi. U soddagina qilib:

- Rahmat, aka, - dedi. Boyagi odam Abayning xijolat bo'layotganligini sezib, ish boshqaruvchining telefon nomerini bosdi.

- Jasurmisiz?

- Ha, bu men.

- Abayga o'zingiz bir nima demasangiz, mening aytganimga unamayapti, - dedi so'zini tugatib go'shakni Abayning qo'lga tutqazarkan.

Go'shakdan Jasurning ovozi yangradi:

- Qo'lingizga naqd pul berilmaganligining boisi posbonning bo'yrug'idir. Qolaversa, hayotingizda Guongjuga birinchi marta kelib, endi yurtningizga quruq qo'l bilan qaytsangiz xunuk bo'ladi. Shuning uchun bergan narsalarni ikkilanmay olavering...

- Abay Jasurning so'zidan ta'sirlandi. U Jasurga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lib turganda telefon uzilib qoldi. Abay afsuslanib uyali telefonni boyagi odamga qaytarib berdi. U odam Abayni besh qavatli bir magazinga boshlab kirib, bir jomadon sovg'a-salom olib berdi. Ikkovi magazin oldida to'xtatib qo'yilgan mashinaga jomadonni solib, tayyoragohga bordi. Abay mashinadan o'zining jomadonini olgandan keyin, boyagi odam yana bir jomadonni ko'tarib tushdi. U odam Abayga:

- Ukam, manavi mening uyimga tegishli jomadon, - dedi va tushuntirib cho'ntagidan manzil bilan uyali telefonni chiqarib berarkan, qo'shib qo'ydi. Bu manzil, telefon nomeri, qo'ng'iroq qilsangiz oldingizga bir yigit keladi, jomadon bilan uyali telefonni berib qo'yishingizni so'rayman. Sizni ovora qilib qo'yadigan bo'ldim, uzr.

- Hech qanday ovoragarchiligi yo'q, aka, - deb Abay kulib qo'ydi. Ular tayyoragohga kelib rasmiyatchilikni bajarib bo'lgandan keyin, jomadonlarni tekshiruvdan o'tkazib, boshqa bir joyga topshirishdi.

Abay ertasi kuni peshindan oldinroq uyiga kirib keldi. Ona-bola xursand, choy ustida endi suhbat boshlanganda darvoza taqilladi.

Abay chopib tashqariga chiqdi. Darvoza oldida o'zi qatori bir yigit turardi.

- Abay degan siz bo'lasizmi? - yigit biroz gumonsirab so'radi.

- Xuddi shunday.

- Boya siz qo'ng'iroq qilgan odam men bo'laman. - Yigit o'zini tanishtirdi, - akam ham qo'ng'iroq qilgan edilar. Omonatni olib ketgani keluvdim.

Abay shuncha qistasa ham yigit uyga kirishga unamadi. Abay noiloj uydan jomadonni olib chiqarkan, cho'ntagidan uyali telefonni ham chiqarib berdi. Yigit telefonni sinchiklab qaragandan keyin:

- Zo'rimikin desam, odmirog'i ekan-ku, - dedi va oldida turgan jomadonni oyog'i bilan turtib, qo'shib qo'ydi, - nazarimda buning ichidagilari ham bundan durustroq bo'lmasa kerak.

- Kim ekan, bolam? - Robixon Abayning yuziga tashvishli qaradi. - Xursand chiqib, xafa bo'lib kirdingmi?

- Meni Guangjudan yo'lga kuzatib qo'ygan odamning ukasi ekan, - tushuntirdi Abay. - Akasi yuborgan omonatni bersam, xursand bo'lish o'rniga, вЂњЎburoq mol ekanвЂќ deb g'udranib ketdi.

- Dunyo degani shunday, bolam. - Robixon kuldi. - Boylar berib yomon bo'lsa, kambag'allar bermay yomon bo'ladi. O'monlasa akasini yomonlabdi, senda nima ayb.

- Akasi yaxshi odam, - tushuntirdi Abay. - Men keltirgan sovg'alarning hammasini o'sha odam olib bergan.

Ona-bola ikkovi choy ichib, uzoq suhbatlashdi. Robixon kechki taomni xontaxtaga keltirib qo'ydiyamki, kenja o'g'lidan darak bo'lmadi.

- Ukangga nima bo'ldi, bolam, hanuzgacha daragi yo'q? - Robixon palovni ishtaha bilan oshalayotgan Abayga qarab so'z qotdi.

- Do'stlari bilan o'ynab qolgandir-da, yo'l ham uzoq. Xavotirlanmang, kelib qolar.

Ona-bola ikkovi shu tariqa gaplashib ovqatlanisharkan, hovlidan kimningdir ovozi eshitildi:

- Oyijon! Chiqib bir qarang, uyimizga kim keldi? Bu kenja o'g'lining ovozi edi.

Robixon bilan Abay nari-beri qo'llarini sochiqqa artib hovliga chiqishdi. Kelganlar Asad bilan Maxsum edi. Abay yugurib borib Maxsum bilan qo'l olib ko'rishdi. Robixon вЂњЎassalomu alaykumвЂќ deb, Asad bilan Maxsumni ichkariga taklif qildi.

- Xo'sh, Abay, yaxshi borib keldingmi? - Maxsum ovqatlanib bo'lgandan keyin, maqsadga ko'chdi, - eshitishimga qaraganda, topshirilgan ishlarni ancha yaxshi bajaribsan, zerikib qolmadingmi?

- Yo'q, albatta yo'q, - derkan, jomadondan bir galstuk bilan bir gazli chaqmoqni oldi. - Ranjimaysiz-da, Maxsum amaki, arzimas bo'lsa-da, shularni sizga olib keluvdim...

- O'h-ho'! - Maxsum sovg'alarni ko'rib xursand bo'ldi. - Haqiqatdan ham yaxshi narsalarni olib kelibsan, bolam, ko'zing mol tanirakan-a...

Maxsum rahmat aytgandan keyin o'zining kelishiga sabab bo'lgan muddaoga o'tdi. - Onangning salomatligiga ham ko'z tegmasin, yaxshi bo'lib qoldi, endi yana bir kurs manovi dorilarni ichsa, u - shunday deyayotib sumkasidan uch xil dorini chiqarib xontaxta ustiga qo'ydi, - butkul ko'rmaganday bo'lib ketadilar. Bu safargi savdodan yaxshi foyda oldik, senga 36 ming yuvan ajratib qo'ydim. Agar olaman desang ertaga shirkatga borganda olishing mumkin.

- Qat'iyon yo'q. Bir tiyin ham olmayman, - deb javob berdi Abay. - U pullarni onamni davolatgan pulning hisobiga olib qo'yishingizni iltimos qilaman, amakijon.

- Mayli, sening aytganingcha bo'laqolsin. - Maxsum bamaylixotir yozilib o'tirdi. Senga aytadigan yana bir gap, ichkaridan olib kelgan o'sha qurilish materiallarini indinga poyezdda chet elga chiqaramiz. Sen ertaga erta bilan yo'lga chiqasan, u yerda sening barcha ishingni joylashtiradigan odam bor, ismi Fozil. Robixonning oldida aytib qo'yay, o'zingga puxta bo'l. Bilishga tegishli bo'lmagan ishlarni so'rama, behudalik qilib yomon ishga aralashib qolsang, meni yuzimni yerga qaratib, obro'yimni bir tiyin qilasan. Onangni dog'da qo'lasan. O'zing o'tda kuyasan. Insonning hayotda ketini o'ylamay qilib qo'ygan xatosi, bilib qo'y va aslo unutmaginki, unga bir umr azob beradi.

- Maxsum amaking to'g'ri aytadi, bolam, - dedi Robixon onalik mehri bilan Abayning boshini silab. - Bizga qilayotgan yaxshiligi uchun qulluq qil, yomonga yondoshma.

- Xotirjam bo'linglar, - Abay Maxsumga qarab qo'shib qo'ydi, - chet elga chiqadigan pasportim bo'lmasa...

- Unisidan xotirjam bo'l. - Maxsum o'rnidan turdi. - Sen shirkatga ishga kirganda topshirgan surat, to'ldirgan shaxsiy varaqa kabilar ana shunday ishlarga ishlatiladi, xayr. - U Abayga qo'lini uzatdi, - chet eldagi ishlarning muvaffiqiyatli kechsini...

Maxsum ular bilan xayrlashib, ketdi.

Robixon, Abay mehmonni kuzatib, uyga qaytib kirgandan keyin, xursand-ligidan o'g'lini erkalab, o'pib qo'ydi. Ikki haftaning ichidagina 36 ming yuvan topibsan, mana, ko'rgan tushing o'ngidan keldi, bolam. Oq paxta boylikning bashorati, degandim, aytganday chiqdi. Alloh buyursa ertang yanada nurli, obod bo'ladi, inshoolloh.

Abay Robixonning so'zlaridan shirin xayollarga cho'mdi. U ko'rgan tushining yaxshilikdan bashorat ekanligiga endi shubha qilmadi. В Ё О q bulut, mana, hozirgina chiqib ketdi. U haqiqatdan posbon bo'lib, Abayning boshini silayotgandi - ustiga mindirib, jahonni sayr qildirayotgandi. U Abayni oq paxta bor yerga boshlab borib, salkam qirq ming yuvanga ega qildi, yana bir yerga boshlab bormoqchi hali. Abay miyig'ida kuldi.

- Aytganingiz kelsin, onajon, - dedi Abay uyqudan yangi uyg'ongan odamdek, ko'zini uqalab.

4

Abay topshiriq bo'yicha aytilgan davlatga bordi. Uni miqtidan kelgan, qirq yoshlar chamasidagi Fozil ismli pakana kishi kutib oldi. Abay yuvinib bo'lib, mehmonxona restoranida ovqatlandi.

- Sening endigi vazifang, - deb tushuntira boshladi Fozil burnining uchini qashib turib, - savdo shartnomasiga keladigan odamlarni kutib olishdir.

- Biz nima bilan savdo qilamiz? - deb so'radi Abay ajablanib.

- Posbon senga aytmaganmide?

- Ha... bo'ldi, - Fozil Abayning gapini bo'ldi. - O'sha qurilish materiallari savdosi. Savdoni ertaga ertalab qilamiz, sen shirkatning haqiqiy vakili sifatida o'tirasan.

- Lekin, men mol savdosi tarkibidagilarning birortasini bilmayman-ku?

- Shoshilma, - Fozil oldidagi choydan bir ho'plab, so'zida davom etdi, - men senga hammasini keyin tushuntiraman...

Abay aqlini tanigandan buyon birinchi bor boshqalarning qulog'i bo'lib qanday anglash, qo'l-oyog'i bo'lib qanday harakat qilish to'g'risida ko'p dars oldi. Unga eng og'ir kelgan narsa o'rgatilgan gap-so'zdan boshqa ortiqcha bir og'iz ham so'z qo'shishga ruxsat qilinmasligi bo'lgan edi. Qayg'u-hasrat, g'azab-nafratni boshqalarning luqmasi bilan ifodalaydigan bo'lsa uning to'tiqushdan farqi qolarmide.

- Unday savdoni o'zlarining qilsangizlar bo'lmaydimi? - dedi Abay Fozilning ma'ruzasini tinglagandan keyin, xo'rsinib.

- Bu shirkatning tartib-qoidasi. - Uni buzishga va yoki ijazatsiz chetlab o'tishga hech kimning haqqi yo'q!

- O'rgatganlaringizni unutib qo'yib, ishni buzib qo'yimasaydim deymen-da...

- U yog'idan ko'ngling to'q bo'lsin. - Fozil kuldi. - Qisqasini ulayman, uzunini kesaman.

- Shunday bo'lganda ham siz savdolashganingiz yaxshi emasmi?

- Bu savdo ruhiyati, ukam, - dedi Fozil keskin va o'rnidan turdi. - Pulni topshirish usuli deganda, esingda bo'lsin, bank orqali emas, naqd pul bilan amalga oshiriladi. Naqd pulni topshirish shakli deyilganda В Ё О oltin В Ё k bo'ladi, deysan. Bu ikki ishda mahkam turasan, uqdingmi?..

Abay eshitganlarining hammasini bir kecha uyqusiz degudek yodlab chiqdi. Erta sahar o'rnidan turdi, yuvindi, kiyindi. Nonushtani esa yotoqxonada qildi. Fozil aytgandek, mehmonxonaning yettinchi qavatidagi kichik yig'in zaliga kirib, uning belgilab bergan joyiga borib o'tirdi. Zal ichida bir yigit bilan qiz o'tirardi.

- Tanishtirib qo'yay, - dedi Fozil Abayga haligi ikkovini ko'rsatib, - anavi qiz shirkatimizning ushbu davlatdagi aloqa ishlari xodimi, manovi yigit esa, savdo bo'limimizning mudiri, ha... bu yigit esa, - shirkatimizning shu safargi savdo bitimimizga yuborilgan to'la huquqli vakili, - dedi va so'z orasida soatiga qarab qo'ydi. - Mijozlarimizning keladigan vaqti ham bo'ldi.

Yuragimizni bosib, og'ir bo'laylik. Mijozlarimiz kirganda qo'l olishib ko'rishishning hojati yo'q. O'rnimizdan turib, hurmatimizni bildirib qo'ysak, kifoya.

Ular o'zaro gaplashayotganda, besh kishidan iborat savdo guruhi yig'in zaliga kirib keldi. Mezbonlar ularni o'rinlaridan turib kutib olishdi. Mehmonlar ham ularga javoban bosh iring'ashib, bo'sh o'rindiqlarga joylashdilar. Mezbon qiz chanqovbosdi ichimliklar keltirdi.

Majlis qizg'in davom etardi. Fozil tarjimonlik salohiyati bilan o'rta qo'ldi. Abay orada ma'lum bezak ashyoning bahosiga kelganda, shirkat belgilagan besh yulduzli bahoni qo'ydi. Fozil tarjimonlik jarayonida bir dollar qo'shib, olti dollar narx qo'ydi.

Kelganlar bu narxni darhol qabul qildilar. Ammo vaziyatni qulay va o'zlari foydasiga yurishayotganiga ko'zi yetgan Fozil endi ularning shashtini qaytarmaslik uchun Abayga: В Ё Sen hozir jo'rttaga meni qattiq koyi, narxni sakkiz dollarga ko'tar, ammo so'zlaring tabiiy chiqsin В Ё k, deb shipshidi, o'zini go'yo Abayga mijozlarning so'zini tarjima qilganday ko'rsatib. Muhitga endigina moslashayotgan Abay Fozilning qistirma so'zlari tagiga yetdi. В Ё Tarjima В Ё ni yakunlashi bilan Abay salmoqli qilib:

- Nima dedingiz, men hozir sakkiz dollar narx qo'ysam, siz olti dollarning gapini qilayapsiz-ku, - dedi.

Fozil peshonasiga bir urib, mijozlarga Abayning so'zini tarjima qildi. Mijozlar bosh vakilining rangi o'nggan holda bir qancha og'ir gap qildi. Fozil uning gapini o'girdi:

- Olti dollarlik narxni sizlar qo'ygansizlar, deyapti, siz darhol stolni mushtlab, meni tarjimonchilikdan chetlataman deng, - dedi.

Abay ham Fozilga qarab qovog'ini g'azabli uydi.

- Bu nima degan gap? - U stolga zarb bilan urib o'rnidan turdi. - Sen qanday tarjimonsan o'zi, mening so'zimni xato tarjima qilib, shirkatimizning obro'sini to'kmoqchimisani? Hoziroq ko'zimdan yo'qol! - Shunday deb, Abay ko'rsatkich barmog'ini bigiz qilib

eshik tomonni ko'rsatdi, so'ng mijoz tomondagilarga qarab qo'shib qo'ydi. - Bu ishning sizlarga aloqasi yo'q. Manavi galvars tarjimon ishni buzdi. - Fozil o'zini ham ranjigan, ham xijolatli ko'rsatib, Abayning so'zini so'zma-so'z o'girdi. Mijozlar bundan hayron bo'lib, bir-birlariga qarashdi. Oralaridan biri eshik tomonga kelayotgan Fozilning yo'lini to'sib, bir nimalar dedi. Fozil yerga qarab turib, Abayga:

- Seni achchig'i tez odam ekan, harna bo'lganda ham tarjimonni haydab solish durust emas, bahoni qayta kelishsak bo'ladi-ku, deydi. Ish pishayapti, endi o'sha gapingda turaver, - dedi. Shunday qilib, ikki tomon qisqa talashish-tortishishdan keyin, sakkiz dollarli bitimga kelishishdi.

- Bo'пти, - dedi Abay mijoz tomonning o'tinchi bilan tarjimonning bundan keyin ham ishlashiga rozilik bildirib, - savdomizning yuzini qilib, bu safar tarjimonni kechiraman!..

Fozildan tarjimani eshitgan mijoz tomon vakillari yuziga tabassum yugurib, xursand holda bosh iring'ashdi. Fozil ularning so'zlarini to'g'ridan-to'g'ri o'g'irgach, so'z orasiga вЂњyana yetti xil mahsulotimiz qoldi, endi har bir mahsulotga ikki dollardan qo'shib yuborsang bo'ladi вЂќ degan bir jumla so'zni qistirib qo'ydi, Abay ham bu qarorga qo'shilgandi. Bitim orqali qolgan mahsulotlarni shirkatni chiqargan bahosidan ikki dollar ortiqqa sotdi. Pulning o'rniga oq oltin berish ishi ham xamirdan qil sug'urgandek oson kechdi. Ikkala tomon bitimga imzo qo'ydilar.

5

Oradan besh kun o'tgandan keyin, Abay shirkatning ko'rsatmasi bo'yicha yo'lga chiqdi. Uni Fozil hali yog'i artilmagan yangi yengil mashinaga o'tqazib olib ketdi. Ular taxminan ikki soat yo'l bosgandan keyin, daryo bo'yidagi ulkan bir akatsiya daraxti ostida to'xtadi. Oq rangli akatsiya gullaridan taralayotgan hid odamning dimog'ini yorgudek edi. Daraxtdagi qushlar sarxushlikdan tinimsiz sayrardi. Abay mashinadan tushib, manzarani tomosha qilmoqchi bo'lgandi, Fozil ruxsat bermadi. U sababini so'ramoqchi bo'ldi-yu, Maxsumning вЂњbilishga tegishli bo'lmagan ishni hargiz so'ramavЂќ degan so'zini eslab, niyatidan qaytdi. Oradan ko'p o'tmay, ro'para tarafdin bir ixchamgina mashina kelib, ularning mashinasiga orqa qilib to'xtadi. Mashinadan ko'zoynakli ikki odam tushdi. Fozil chot'ntagidan bir qora ko'zoynakni olib, Abayga berdi. Abay ko'zoynakni mashinadayoq taqib oldi. Fozil uni mashinadan tushishga buyurdi. Abay mashinadan tushib, ikki ko'zoynaklikning yoniga borib turdi. Ungacha narigi tomonning baland bo'yli biri o'zlarining mashinasining orqa yukxonasidagi sandiqni ochib, g'oz turdi. Abay ham o'zlarining mashinasidagi sandiqni ochdi. Narigi tomondan past bo'yli odam mashinadan jomadonni olib, Abay o'tirgan mashina yukxonasidagi sandiqqa soldi. Ortidan ikki qo'lida ikki mashina yukxonasining qopqog'ini baravar yopdi. Baland bo'yli odam o'zining mashinasiga o'tirib, quyundek uchirib ketdi. Past bo'yli esa Abay bilan ularning mashinasiga o'tirdi. Fozil esa ulardan oldin o'z mashinasida jo'nadi. Atigi uch daqiqa ichida bo'lib o'tgan bu ishlar Abayni gangitib qo'ydi. Shirkatning вЂњto'la huquqli vakil вЂќ bo'lgan Abay bu ishlar sirini bilishni xohlamadi. U buni faqat вЂњsavdo psixikas вЂќ deb tushunardi. вЂњButun boshli ulkan bir shirkatning posboni aralashmagan ishga men aralashib nima qilaman, men faqat o'zimga tegishli vazifani bajarsam bo'ldi-davЂќ deb o'ziga tasalli berdi. Fozil yo'l bo'yi allakimlar bilandir qo'ng'iroqlashib bordi. U shu tariqa ikki nav-batdagi tekshirish postidan o'tib, ikki davlat chegarasiga yetib keldi.

- Xo'sh! - dedi Fozil sirli bir ohangda, - men sizlar bilan shu yerda xayrlashaman, sen manovi yigit bilan ikki davlat chegarasidan o'tasan, bizning chegaradagi tegishli odamlarga men qo'ng'iroq qilib, hamma ishni bitirib qo'ydim. Mana bu sumkada mashinaning barcha rasmiy hujjatlari bor. Manovi yigit mashina bilan sizlarni chegaragacha yetkazib, mashinani senga qoldirib o'zi qaytib keladi. Ha, aytganday, yana bir narsa, - Fozil biroz o'ylab turib, so'ng Abayga tayinladi, - bu yigitni вЂњmashinamni haydab kelgan shofyor вЂќ deb aytasan, tushundingmi?

- Tushundim, - Abay og'zida shunday degani bilan aslida Fozilning gaplaridan deyarli hech narsani anglamagandi. U faqat bir narsani, ya'ni, boshi berk ko'chaga kirib qolganini anglagan edi. Bu yo'lga kirmoq boru chiqmoq yo'q ekani, muhtojlik tufayli oson вЂњo'ljaga aylanayotgani, so'ng yangi xo'jayin uni qayerga va qay ishga tashlasa, qay vazifani yuklasa, вЂњxo'p bo'ladi вЂќ deb quloq qoqmay bajarishdan o'zga chorasi ham yo'qligini tushunib yetgan edi.

- Tushungan bo'lsang, yana nimaga qarab turibsang? - Fozil Abayning jimib qolganiga qarab qo'pollik bilan dedi. - Endi chegaradagi ishlarning ham mana shu yerdagiday bo'ladi. Ko'rishguncha xayr!..

- Xayr - Abay qo'l silki qoldi. Notanish haydovchi bu yangi chiroyli mashinani navbat kutub turgan qator mashinalar orasidan haydab tekshiruv posti oldigacha olib bordi. Ularning oldiga hushbichim, ko'hlikkina bir ayol chiqib, haydovchi bilan allanimalar haqida gaplashdi. Abay mashinadan tushmay o'tirdi. Chunki, unga mashinadan tushmay o'tirishlik uchun ham haydovchi tayinlangandi. Haydovchi soatiga bot-bot qarab, bir vaqtdan keyin mashinani tekshirish bo'linmasiga haydab kirdi. Boyagi husndor ayol ikki yigitni boshlab chiqib, birinchi bo'lib ularning hujjatlarini birma-bir tekshirdi. Orqa yukxonani ochinglar deb buyurdi. Haydovchi ularning aytganini qildi. Abay narida o'ychan qarab turardi. Tekshiruvchi yigitlardan biri jomadonni ochishni so'radi. Abay sumkadan kalitni olib, jomadonni ochdi. Tekshiruvchilar jomadondagi qismlarni ko'rib, ortiqcha gap ham qilmay, so'ramay jomadonni yoptirdi. Ko'hlik ayol qo'li bilan, ketaveringlar, ishorasini qildi. Haydovchi mashinani yurg'azib, chegaraga keldi. Bu yoqdagi tekshirish ham tartib bo'yicha tezda tugay qoldi. Haydovchi:

- Xayr, - dedi-da, yana ortiga qaytib, hozir chiqqan tekshiruv bo'linmasiga kirib ketdi.

- Rahmat! - Abay aytmoqchi bo'lgan so'zini aytolmadi. Mashina Abayga qoldi.

6

Chet eldagi bu safargi savdo Abayning iqtisodida ulkan burilish yasadi. U qaytib keliboq Maxsumning saxiylik bilan qilgan in'omiga erishdi. Maxsum uning barcha qarzidan uzilganidan boshqa qo'lga yana 80 ming yuvan naqd pul, so'ngra chet eldan haydab kelgan вЂњJundavЂќ rusmli yengil mashinani hadya qildi. Ana shundan keyin Abay chet elga birin-ketin uch marta borib keldi. Maxsum ham uni har doim foydaga qarab mukofotlab turdi. Abay ham muhtojlikdan butkul xalos bo'ldi. Oq bulut, oq paxta, oq ko'mir, oq kecha qo'shilib uning yangi taqdirini yaratdi desa ham bo'lardi. Abay o'zi ham sezmaganda oq rangga ixlos qiladigan, uni qadrlaydigan bo'lib qoldi. Uning yangidan sotib olgan yoki tiktirgan kiyimlarining deyarli hammasi oq rangli edi. Qisqasi, doim yonidan ayrilmaydigan kichik qora sumkasini ham oq rangga o'zgartirgandi. Hozir uning diqqat qiladigani, xayolidan ayrilmaydigani oq rangli ko'mir bo'lib qoldi. U o'sha oq rangli ko'mir bilan o'zining hozirgi yangi taqdiriga yorqin ko'rkamlik baxsh etmoqchi edi. Lekin, oq rangli ko'mir hozirgacha o'zini hech ko'rsatmayotgandi. Abay uni topishga qat'iy bel bog'ladi.

Bir kuni Maxsum uni oddiy bir oshxonaning alohida xonasiga ovqatga taklif qildi. Xizmatkor qiz Maxsumning buyurtmasi bilan

bir lagan sergo'sht shilpildoq bilan bir shisha qoraqat sharbatini qadahlarga quyib chiqib ketdi. Ular ovqatni ishtaha bilan yeb bo'lgandan keyin, qoraqat sharbatini ichgach, suhbatga tushdilar.

- Men aytmasam ham bo'ladi, ishlaring joyida, yomon emas. Ancha ilgirilading, - Maxsum tamakidan birini tutashtirdi, - poyqadaming yoqib yarim yil ichida shirkatimizga zo'r foyda keltirding, men shirkat nomidan hamda o'z nomimdan senga samimiy tashakkurimni va rahmatimni bildiramani. - Maxsum shunday deb o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib yoqimli kuldi.
- Maxsum amakijon, meni o'ng'aysiz xijolatga qo'yayapsiz, aslida rahmatni men sizga aytishim kerak edi. Mening hozirgi baxtli hayotimning asosiy sababchisi yagona sizsiz. Bularning hammasi faqat siz tufayli bo'lmoqda. Meni og'ir ahvoldan xalos etib, cho'kib ketayotgan botqoqdan qutqarib, yorqin yo'lga olib chiqdingiz. Buni bilmagan kishi ko'r bo'ladi. Sizdan cheksiz minnatdorman! Abay beixtiyor o'rnidan turdi va yig'lamoqdan beri bo'lib, yana dedi:
- O'zingiz ayting-chi, aziz Maxsum, amakijon, menga bundan ortiq baxt bormi dunyoda?!...
- To'g'ri aytasan, o'g'lim, o'tir. Maxsum uning yelkasidan bosib o'kazdi.
- Siz bo'lganingiz uchungina mening onamning hayotlari saqlanib qoldi ham og'ir muhtojlikdan qutulibgina qolmay, ancha-muncha qo'r-qutlik ham bo'lib qoldim...
- Otang bilan onangning menga qilgan yaxshiliklari oldida mening bu qilganlarim gapirishga arzimaydi, bolam. - Maxsum shunday deb sharbatdan bir ho'plab so'zida davom etdi. - Endi maqsadga ko'chsak, senga avvalgidan ham muhim bir vazifani topshirmoqchiman, yana bilmadim, senga ma'qul keladimi, yo'qmi?
- Mening sizga yo'q deyishga haddim sig'maydi, qanday xizmat bo'lsa, bajonidil, buyuravering.
- Unda aytganim bo'lsin, - Maxsum tamakini kuldonga bosib o'chirdi.

7

Hash-pash deguncha oradan yarim yil ham o'tib ketdi. Abay qaramog'ida mas'ul bo'lib ishlayotgan oshirib sotish markazining ishlari ham kuchaydi. Uning doirasi mamlakatdan davlat tashqarisigacha kengaydi. Bu jarayonda Abay ikki marta oliy darajaga chiqib, ikki million yuvan naqd pul bilan mukofotlandi. Uning soyasida mahalladagi ayrim do'stlari ham ancha-muncha mablag'li bo'lib qolishdi. Biroq, ukasini shirkatga joylashtirish ishi amalga oshmadi. Abay buning sababini surishtirib o'tirmadi. U uchinchi marta hissadorlik to'plash tayyorgarchiligi bilan band bo'lib turganda, Maxsum uni qabulxonasiga chaqirtirib, ishni chet eldan boshlashni buyurdi. Chet eldagi mukofot bu yerdagidan ikki hissa ko'p edi. Buni eshitgan Abay ertasigayoq yo'lga chiqdi. Borib Fozilning rahbarligiga o'tdi. Rahbarlik degan tushunchalarning Abayga farqi yo'q edi. Boshqarish bilan boshqarilish uning uchun shakar bilan suvning munosabatidagidek bir ish edi. U shakardan ham suvni a'lo bilardi. Chunki suv shakarning ta'mini yo'q qilib yubora olardi. Shu bois ta'mi bo'lmasa ham unga suv afzal edi. Juda bo'lmaganda har qancha lozim topsa suvni shuncha bemashaqqat ishlata olardi. Shu jihatdan u Fozilning qo'l ostida ishlashidan xursand edi. Abay Fozilning joylashtirilishini orqavarotdan eshitgandan keyin, o'zi yashayotgan shahardagi vatandosh savdogarlar orasida tashviqotni boshlab yubordi. U hozir oshirib sotish ishi bo'yicha har qanday sotuvchini bir cho'qishda qochirardi. Uning bir necha kunlik tashviqoti bilan hissador bo'lganlarning soni sakkiz nafarga yetdi. Bu hissadorlar har tomonga tarqab, ikki haftaga bormay o'n olti nafar odamni markazga a'zo qildi. Bora-bora qirq ikki kun deganda, odam soni bir yuz o'ttiz sakkiz nafarga yetdi. Yana o'n ikki nafar odam kelib qo'shilsa, Abayning chet eldagi birinchi bosqichli xizmati yakunlanib, Oliy bosqichga chiqardi-da, uch million yuvan pul bilan mukofotlanardi. Abay qolgan odamlarni to'ldirish uchun kechani kunduzga ulab yelib-yugurardi. Oradan kechgan besh kun samarasiz o'tdi. Bir kuni u holdan toyib yotoqxonaga qaytib keldi. Kiyimlarni yechishga ham erinib, o'zini divanga tashladi. Daqiqa o'tmay pinakka ketdi. To'satdan telefon jiringladi. Abay uyg'oq bo'lsa-da, go'shakni olmadi. Telefon uzluksiz olti-etti marta jiringlagandan keyin sakrab o'rnidan turdi.

- Assalomu alaykum, - Abay go'shakni qo'lga olib salom berdi. - Men, Abayman, nima ishingiz bor edi?

Go'shakdan Fozilning ovozi eshitildi:

- Shirkatdan seni darhol vataningga qaytishingni aytishdi.

Abay hali uch soat oldinroq Maxsum bilan qo'ng'iroqlashgandi. Biroq, u xotirjam ishni davom ettirishni tayinlagandi. Endi esa bu gap bo'layapti. Abay shu topda hammadan ham ko'proq uch million mukofot pulini qo'lga kiritishga tirishardi. O'n ikki nafar odamning o'rni nari borsa ikki-uch kunda to'lardi. Binobarin, katta mukofotga besh qadamgina qolgan edi. U qo'lini shunday cho'zsa, bas, yetardi. Biroq manavi qo'ng'iroq uni bundan mahrum qilmoqda. Uch million yuvan, albatta, oz emas, Abay bu sonni xayoliga keltirsayoq aqlini yo'qotardi. Go'zal xayollarga berilib, kelgusidagi maqsadlarini rejalashtira boshlardi. Uningcha, uch million tushida ayon bo'lgan oq ko'mirlarning o'zginasi edi. O'sha pul qo'lga kirgudak bo'lsa, shubhasiz, oq ko'mir qo'lida degan gap edi. Shuningdek, uning sarmoyasi ham olti millionga yetardi. U bu pul bilan nimani qilaman desa hammasiga qodir bo'lardi. Afsuski, bu pulning endi uning uchun olti tiyinchalik qimmat qolmagan edi. Chunki, Maxsum oldingi uch million yuvanni uning xohishi bilan shirkat hissadorligiga birlashtirib qo'ygandi. Shirkatning hisoboti qachon chiqadi? Pul Abayga qachon tegadi? Bunisi noma'lum edi. Bunday dilsiyohlik uning xayolidan kechganda o'zini tubsiz jarga qulab tushayotgandek his qilardi. O'zining nodonligidan, ahmoqligidan, ko'ngilchanligidan qattiq og'rinardi. Mana, endi esa, o'sha sodir qilgan xatolarini boshqa aslo qaytmaslikka qaror qildi. Uch millionni qo'lga oliboq bu dargohdan qutulib mustaqil terifurishlik bilan shug'ullanmoqchi bo'ldi. Chunki, bir hafta oldin davlatimizdagi xrom zavodi bilan Abay dastlabki kelishuvni imzolagandi ham. Uning shoshilishi ham xuddi mana shundan edi. Agar yana bir hafta kechiksa, bitim amaldan qolardi. Bundan keladigan sof bir million foyda ko'pikka aylanardi. Nima qilish kerak? U hozirgacha Maxsumning chizgan chizig'idan qilcha chiqmadi, shirkatga necha o'n million yuvanlik sof daromad keltirdi. Hozirgi ishi ham yana shu shirkat uchun-ku. Abay hammasini toroziga tortib, uzil-kesil qaytmaslikka qaror qildi.

- Qo'limdagi ishim hali tugagani yo'q - dedi, Abay biroq o'ylanib olgandan keyin.

- Kelgandan keyin ham bitirsang bo'ladi, - Fozilning ovozi aniq eshitildi, - ertaga saharda yo'lga chiqasan.

- Men boya Maxsum aka bilan gaplashganimda bunday gapni aytmadilar-ku?

- Maxsum aka aytmaganlari bilan men senga atayapman. Bu yerda mening aytganim hisob! - telefon go'shagini zarda bilan qo'ydi. Abay ikki kaftini boshiga qo'yib uzoq o'ylanib qoldi. U nihoyat jo'nashga qaror qilib, kechasi bilan yo'l tayyorgarchiligini ko'rdi. Fozil ertasiga tong yorishayotgan mahalda uni olib ketgani keldi. Uning bu safargi haydab kelgan mashinasiga nomer qo'yilmagan yangi ВЪНmersedesВЪК rusmli mashina edi. Abay mashinaga qiziqish bilan o'tirdi. Mashinada Fozildan boshqa hech kim yo'q edi.

- Chegaraga borgandan keyin bu mashinani menga berib yuborasizmi? - Abay hazil qildi.

7 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Buni shirkat hal qiladi, - Fozil bir tirsakdan o'tgandan keyin javob berdi, - vazifani a'lo bajarsang balki mukofot qilib berishi ham mumkin.

Abay uning javobi bilan shirin xayollariga berildi. Fozil lom-mimsiz mashinani haydab ketaverdi. Ular ikki joydagi tekshiruv postidan o'tib, daryo bo'yiga kelganda, mashinani o'rmonzor ichida to'xtatdi. Bu safar mashinadan Fozilning o'zi tushdi. Abay ortiga burilib qarab ko'ziga ishonmay qoldi. Mashinaning ortida yana bir kichik mashina orti bilan turardi. O'sha mashinadan ikki kishi tushib to'rt jomadonni Abay o'tirgan mashinaning ortiga bosishdi. Fozil boshqa bir mashinaga chiqdi, Abay o'tirgan mashinaga boshqa bir yigit o'tirdi. Ikki mashina baravariga qo'zg'alib, o'z yo'lga ravona bo'ldi. Abay mashinani haydayotgan yigitga shubhali nazar soldi. Ko'pam uzoq yurmay haydovchining uyali telefoni jiringladi, yigit telefonni oliboq Abayga berdi. Abay nima qilishini bilmasdan haydovchiga qaragancha turib qoldi.

- Sizning telefoningiz, - dedi yigit qo'pol talaffuzda. Abay shundagina o'ziga kelgandek telefonni qulog'iga tutib:

- Men Abayman, nima gapingiz bor edi? - dedi.

- Mashinadagi sumkada barcha hujjatlar bor. - Bu Fozilning ovozi edi, - haydovchi mashinasini bizning davlatimiz chegarasidan o'tkazib bersang. Qolgan ishlar o'tgan safargidek bo'ladi, telefon uzilib qoldi.

Abay o'ylanib qoldi. Ilgarigi to'rt martalik safar ham hozirgidek bo'lgandi. Bu safargisining o'xshamaydigan joyi shunda endiki, mashinani o'zi haydab ketishi edi. Uning yuragi qattiq ura boshladi.

- Bojxonaga keldik, - dedi haydovchi, - darhol tekshirishni qabul qiling, esingizda bo'lsin, jomadondagi mashinaning qismlar...

- Tushundim, - Abayning rangi nimagadir bo'zardi.

Oldingi qatordagi mashinalar tekshirilib, taxminan biror soatdan ke-yin, navbat Abayga keldi. Bu safarli tekshirishda ham yana o'sha o'tgan safardagi mas'ul xodim - xushbichim go'zal ayol ishtirok etardi. Tekshirish ilgaridagiga o'xshab tartib bo'yicha olib borildi, oxirida barcha hujjatlarga tamg'a urildi. Haydovchi qoldi. Mashinani Abayning o'zi haydab ketdi.

8

Maxsum qabulxonada ro'para tomondagi devorga osig'liq rasmga tikilgancha chuqur xayolga botib o'tirardi. Nechundir yaqindan buyon u yolg'izlikni xohlab qolgandi. Qo'l ostidagilar yoki xaridorlar uni izlashsa, yo'q ishni bahona qilib asabiylashardi. Uning g'azabiga bemahal duch kelib qolgan notanish ikki xaridor, o'n daqiqa ilgari bitimni yirtib yuborib chiqib ketdi. Eshik to'satdan taqilladi. Maxsum hech narsani anglamagandek, eshitmagandek yana devordagi o'sha osig'liq rasmga qarab o'tiraverdi. Eshik uch marta taqilladi, Maxsum javob bermadi. Eshik asta ochilib qabulxonaga ozg'in, pakanadan kelgan o'rta yoshli bir kishi kirdi. Maxsum uni quvib chiqarish maqsadida og'zini g'azab bilan juftladi-yu, darhol to'xtab qoldi.

- Ha, senmiding, kel! Kelaver! - Maxsum o'rnidan qanday turib ketganini o'zi ham bilmay qoldi. - Mana manovi joyda o'tir, - dedi amirona bir tarzda. - Pakana odam ham u ko'rsatgan kresloga - Maxsumga qarama-qarshi tomonga o'tirdi. - Qani gapir, ishlar qanday, bartaraf qilindimi?

- Peshindan oldin taftish mahkamasiga boribdi, - pakana odam so'z orasida tomog'ini qirib so'zida davom etdi, - boyagi odamimizning gapiga qaraganda, hech narsani aytmabdi.

- Molning miqdori qancha ekan? - Maxsum toqatsizlandi.

- 39 kilogramm.

- Demak, va'dalashgandek to'liq yuborgan ekan-da, kasofatlar, - der ekan, bir zum o'yga toldi. U kechayotgan jarayonlarni o'ta xushyorlik, sezgirlilik bilan kuzatar, yer ostida ilon qimirlasa bilar, voqealarning bir tomoni uni mamnun etsa, boshqa bir tomoni yuragini g'ash qilib, tashvishga ham solardi. Nihoyat, Maxsum ovozini biroz ko'tarib so'zida davom etdi:

- Hah, bechora bola, oxiri otasining yoniga ketadigan bo'libdi-da?

- O'zi yolg'iz ketsa-ku mayliydi-ya, - pakana odam Maxsumning bo'zargan yuziga yer ostidan qarab qo'ydi...

- Menimcha, hech kimni o'zi bilan sudrab ketolmaydi, - Maxsum o'tirgan yerida biroz bezovtalangan holda alamli qimirladi, - bizda uning qo'lga chiqqudek birorta dalil yo'q. Mabodo bo'lganda ham, Abay unday qiladigan yigitlardan emas.

- Chet eldagi Fozil bilan to'rt haydovchini sotmasmikin?

- Ularning haqiqiy ismi bilan manzilini bilmasa, nimaniam isbotlab bera olardi?

- U-ku, shundayku-ya... - Pakana odam o'ylanib biroz turib qoldi, - onasi eshitibdimi?

- Yo'q hali, Maxsum hasratli tindi, - ikki soat oldin onasi menga qo'ng'iroq qilib: в Ъњрoхush tush ko'rdim, yo o'zi qo'ng'iroq qilmadi, yoki biz ololmayapmiz, ko'nglim bezovta bo'lib qattiq havotirlanayapman в Ъќ, dedi. Men: в ЪњXotirjam bo'ling, yaxshi yashayapti, xudo xohlasa, yana bir oyga qolmay qaytib keladiv Ъќ, deb tinchlantirib qo'ydim.

- Hozirdan boshlab u ayol biladigan telefoningizni yo'qoting! - dedi pakana odam buyruq ohangida Maxsumga.

- Shunday qilmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi. - Maxsum tortmadan telefon kartasini olib yonidagi telefon kartasi bilan almashtirib yubordi, sen hozirning o'zidayoq Fozilga tez xabar ber, Abayning oshirib sotish guruhiga bevosita o'zi mas'ul bulsin.

- Xo'p bo'ladi, - deb pakana odam o'rnidan turdi, - Abayning o'rniga biror odamni mo'ljalladingizmi?

- Yo'q hali.

- Siz agar xo'p, desangiz men bir odamni mo'ljallab qo'yuvdim?

- Ko'nglimga hozir qil sig'may turibdi. Bu to'g'rida keyinroq gaplashamiz.

- Ish tugagandan keyin o'ylasak kechikishimiz mumkin.

- Mayli, xo'p ham deyaqolay, o'sha mo'ljallab qo'ygan odaming kim ekan o'zi, qani, aytib ko'r-chi.

- Abayning haligi... - pakana odam oxirgi so'zini ancha cho'zib talaffuz bilan gapirdi, - ukasi...

- Juda soz! - Maxsum hayajonlanganidan tizzasiga bir urib o'rnidan turib ketdi.

- Ey yashavo-or azamat, biroz qorong'u bo'lib g'ashtlik tortib turgan ko'nglimni yorishtirgandek bo'lding, qara-ya, sen menga xazina topib berga-ningda ham bunchalik ko'nglim yorishmasdi. Hali ham bo'lsa sopi o'zimizda turgan ekan-ku, - deya pakana odamga ma'noli qaradi. - Bo'lmasa, sen uni darhol chaqirib, kechiktirmay Abayning o'rniga qo'ygin, yana lozim bo'lsa, ikki xaridorni ham uning uchun ro'yxatga oldirib qo'y. U guruhga, mayli, oshirsin, mayli, oshirmasin, Abayning chet eldagi oladigan uch million yuvanni mukofot qilib bersak, u ham akasiday jonini ayamaydigan sodiq odamimizga aylanadi-qo'yadi. - Maxsumning gapirayotib ko'ngli buzilganday bo'ldi, - Abay bilan Robixonga yomon bo'ladigan bo'ldi-da. Robixon endigina yurak xastaligidan qutulib turuvdi-ya...

- E-e, xo'jayin, hamma narsaning jazzasi pul, hamma narsani pul hal qiladi-ku, axir, pul! Dilni yayratadigan ham, tilni biyron qilib sayratadigan ham, har qanday dardning davosi ham faqat pul! Bu pul degan sabilning oldidan har qanday zot ko'ndalang o'tolgan



This is not registered version of Total Doc Converter

emas. Uning qo'shgan ushbu kitobni o'qish uchun, dushmanni do'stga aylantiradi. Kerak bo'lsa o'likka jon kirg'azadi! - Pakana odam cho'ntagiga ishora qilib urib quydi, - Abayning bizga qo'shgan uch million hissasini Robixonga bersangiz og'zi mum tishlagandek yumiladi qoladi.

- Qaydam. Bu keyingi masala, - Maxsum hasratli tin oldi. Biroq, baribir Abayning o'rnini endi hech qanday pul bilan to'ldirib bo'lmaydi-da? Uning soddadilligi uchun har qancha pullar ham ozlik qiladi...